

«KELISHILDI»
SamDAQU Xodimlar va talabalar
boshlang'ich uyushmasi qo'mitasi
raisi


B.E. Elmurodov
«13» 07 2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

SamDAQU rektori

Ch. J. Turkyilmaz

«13» 07 2025 y.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Sifat nazorati koordinatorligi mutaxassisi (R.D. Bahromov) ning lavozim

YURUQNOMASI

I. Sifat nazorati koordinatorligi mutaxassisi funksional vazifalari

1. Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish;
edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan xatlar ijrosini to'liq va o'z
vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Universitet ta'lim yo'nalishlarini ichki Attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha
ekspertlar guruhi faoliyatini tashkil etish, audit jarayonlarida ishtirok etish;

Universitet kafedralarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan
foydalanish holatini o'rganib chiqish, tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va
takliflar kiritish;

Universitet reytingini aniqlashda kafedralar tomonidan berilgan
ma'lumotlarni to'liqligi va ishonchliligini tekshirish, qabul qilish va Milliy
Agentlikka taqdim etish;

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning normativ-huquqiy hujjatlar
bilan ta'minlanganligini o'rganish;

Professor-o'qituvchilar reytingini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni
to'plash;

HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish va nazorat
qilish;

Ishchi guruhi tarkibida talabalar bilimni baholash hamda oraliq va
yakuniy nazorat sinovlarining xolisligi shaffofligini nazorat qilish;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari sifati va samaradorligini tahlil
qilish;

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkaziladigan "Ochiq
darslar" va "Ochiq ma'ruzalar"ni tashkil etish, tahlil qilishda ishtirok etish va
umumlashtirilgan ma'lumotnoma tayyorlash;

Universitet axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan
ta'minlanganligini, ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash bo'yicha
ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

II. Sifat nazorati koordinatorligi (Mutaxassisi) lavozimiga qo'yilgan malaka talablari

2. Sifat nazorati koordinatorligi mutaxassisi lavozimiga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

oliy ma'lumotli, ta'lim sohasida muayyan tajribaga, nazariy bilimlarga, tashkilotchilik qobiliyati ega bo'lishi;

ta'lim sohasiga oid Prezident farmonlari, qarorlari, vazirlik va universitet rektori buyruqlari va asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi;

universitetning kafedralari, fakultetlari va bo'limalari faoliyatidan xabardor bo'lishi;

axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan lozim darajada foydalanishni bilishi;

o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishi;

yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr etish bo'yicha o'rnatilgan tartibni bilishi;

o'zbek tilini mukammal bilishi, rus tilini yoki xorijiy tillardan birini tushinishi yoki erkin gaplashishi talab etiladi;

xizmat vazifalarini vijdonan bajarishi, korrupsion holatlarga yo'l qo'ymasligi va o'z sha'niga dog' tushirmasligi uning majburiyati hisoblanadi.

Ushbu yo'ruqnoma Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416 soc vn Qarori 2-illovasi bilan tasdiqlangan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetini transformasiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ning 12-bandiga asosan hamda "SamDAQU Sifat nazorati koordinatorligi to'g'risida NIZOM" ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tanishdim:



R.Bahromov